

QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARLARI

(2026-yil 2-son)



PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

**KREATIV PEDAGOGIKA FANINING MOTIVATSION YONDASHUV  
ASOSIDA PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KREATIV  
FIKARLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.130>

*Toshnazarova Mohinur O'sarali qizi*

*Qo'qon DU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kreativ pedagogika fanining motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ fikarlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarida kreativlikni rivojlantirish, zamonaviy ta'lim muhitiga moslashish, o'z qobiliyatlarini namoyon etishda motivatsion yondashuv muhimligi hususida fikrlar mavjud.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik ta'lim yo'nalishi, talabalar, kreativlik, rivojlantirish, zamonaviy ta'lim muhiti, moslashish, motivatsion yondashuv, kreativ pedagogika, ko'nikma.

**Аннотация.** В данной статье представлены некоторые соображения о роли креативной педагогики в развитии навыков творческого мышления у студентов педагогических специальностей на основе мотивационного подхода. Также рассматриваются вопросы важности мотивационного подхода в развитии креативности у студентов педагогических специальностей, адаптации к современной образовательной среде и демонстрации их способностей.

**Ключевые слова:** Педагогическое образование, студенты, креативность, развитие, современная образовательная среда, адаптация, мотивационный подход, креативная педагогика, навыки.

**Abstract.** This article presents some thoughts on the role of creative pedagogy in developing creative thinking skills of students of pedagogical education based on a motivational approach. There are also thoughts on the importance of a motivational approach in developing creativity in students of pedagogical education, adapting to the modern educational environment, and demonstrating their abilities.

**Keywords.** Pedagogical education, students, creativity, development, modern educational environment, adaptation, motivational approach, creative pedagogy, skills

**Kirish.** Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda, yoshlarni shu jumladan pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish,

bu jarayonda motivatsion yondashuvning didkatik imkoniyatlaridan foydalanish masalasi alohida ustuvor vazifa hisoblanadi. Mamalakatimiz rahbarining 2022-yilda ta‘lim tizimiga bag‘ishlangan xalqaro kongressda “har bir maktab bitiruvchisi ikkita tilni bilishi va bitta kasb o‘rganishi kerak. Hozir 22 ta fan bor maktablarda. Endi esa yoshlarga kreativ sohalarda dars berishimiz kerak. Fanlarni ham, dars soatlarini ham ko‘rib chiqishimiz kerak” degan fikrlari ham ayni muammoning dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Mamalakatimizda mutaxassis kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish, ularni jahon standartlari asosida tarbiyalash, ularda individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ta‘lim olishga bo‘lgan motivatsiyani kamol toptirish, bu jarayonda zaruriy sharoitlarni yaratish, xalqaro rivojlangan ta‘lim muassasasalari bilan keng miqyosida aloqalar o‘rnatish, milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish, milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish, oliy ta‘lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish, xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta‘lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o‘tkazish, xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta‘lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq tanlov e‘lon qilish va o‘tkazish, global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish kabi maqsadlar oliy ta‘lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu vazifalar yuzasidan talaba-yoshlarda ijodkorlik fazilatlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, makur jarayonda motivatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik ta‘lim yo‘nalishi talabalarida kreativlikni rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim muhitiga moslashish, o‘z qobiliyatlarini namoyon etishda motivatsion yondashuv muhim sanaladi. Pedagogik tizimda motivatsion yondashuvni qaror toptirish, pedagogika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kreativ fikarlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda kreativ pedagogika fanining o‘rni ham benihoya ulkandir. Chunki kreativ pedagogika fani pedagogika ta‘lim yo‘nalishi talabalarini uchun ijodkorlik sifatlarini o‘zlashtirishga, kreativlikka oid nazariy bilim, ko‘nikma, malakalarning shakllanishiga hamda amaliy faoliyatda qo‘llay olishga yo‘naltiruvchi mutahassislik fanlaridan biri hisoblanadi.

Kreativ pedagogika fani 60110100-Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalarini uchun 8 semestrda 30 soat maruza, 30 soat amaliy mashg‘ulot ko‘rinishida o‘qitiladi. Bu fanning maqsadi talabalariga ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va

strategiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangiliklarini o‘zlashtirish, ularni amaliyotda sifatli qo‘llash, to‘ldirish va yangilash qobiliyatiga ega bo‘lishga yo‘naltiradigan nazariy va amaliy ma‘lumotlar berish, talabalarni kreativ pedagogika asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni kreativ samarali tashkil yetish uchun zarur ko‘nikmalarni egallash; kreativ pedagogika faninini o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy yangi texnologiyalarni keng doirada qo‘llay olishga yo‘naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni oshirish; yangiliklarni yaratadigan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko‘ra mazkur paragrafda bayon etilayotgan kreativ pedagogika fanining motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yuqori deb hisoblaymiz.

**Muhokama va natijalar.** Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalari Kreativ pedagogika fanidan 8-semestr davomida maruza mashg‘ulotlari quyidagi mavzular asosida olib boriladi. (1-jadval)

**1-jadval. Kreativ pedagogika fanidan 8-semestr davomida maruza mashg‘ulotlarida o‘qitiladigan mavzular.**

№	Mavzular	Tasnifi
<b>Ma‘ruza</b>		
1	Kreativ pedagogika fan sifatida	Kreativ pedagogika qanday fanligi, kreativ pedagogikaning asosiy tushunchalari, kreativ pedagogika fan va akademik fan sifatida, kreativ pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, kreativ pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari o‘qitiladi
2	Kreativ ta‘lim muhiti: mohiyati, xususiyatlari	Kreativ ta‘limning tabaqalanishi va davriyligi, “Atrof-muhit”, “Kreativ muhit”, “Ta‘lim muhiti”, “Kreativ ta‘lim muhiti” tushunchalarining mohiyati, kreativ ta‘lim muhitining asosiy talablari, kreativ ta‘lim muhitini shakllantirishning pedagogik shartlari tahlil qilinadi.
3	Didaktik ta‘minotni yaratishga kreativ yondoshuv	O‘quv dasturlarini yaratishga kreativ yondoshuv, kreativ yondoshuv – o‘quv manbalari (ma‘ruza matni, o‘quv darsligi, o‘quv va metodik qo‘llanma hamda o‘quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili ekanligi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuvning ahamiyati, o‘quv axborot (ma‘lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini

		ko‘rsatuvchi muhim holat ekanligi bayon etiladi.
4	Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tasavvurini rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik	Kreativ tasavvur tushunchasi, kreativ pedagogika fanini o‘qitishning asosiy shakllari, ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi, kreativ tasavvurni rivojlantirish va yangi yechimlarni topish usullari, sinov va xato, ilmiy ijod tushunchasi, ilmiy ijod usullari, bo‘lajak o‘qituvchilarda ilmiy ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish mazmuni hususida bilimlar beriladi.
5	Kreativ kompetensiya modelining shakllanishi va o‘qituvchining ta’lim jarayoniga kreativ yondoshuvi	O‘qituvchi modelining umumiy tavsifi, o‘qituvchining kreativ kompetentsiyasini shakllantirishning modeli, kreativ tayyorgarlik-ijodiy yetuklikning tarkibiy qismi kabi masalalar yoritib beriladi.
6	Kreativ topshiriqlar tizimi. Kreativ darsning innovatsion tuzilishi	Kreativ topshiriqlar tizimi, kreativ darsning innovatsion tuzilishi, maktab o‘quvchilarining kreativ tafakkurini uzluksiz shakllantirish va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik tizimi, kreativ darsning tuzilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berib boriladi.
7	Pedagogik qobiliyatni va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ yondoshuv	Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi, o‘qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda kreativ funksiyalari, pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari, “Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik kompetensiya tushunchasi, bo‘lajak pedagoglarda pedagogik savodxonlikni oshirish tizimi, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy yondoshuv hususida bilimlar berib boriladi.
8	Kreativ kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi. O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullari	Kreativ kompetensiya, kreativ eruditsiya - ijodiy salohiyatning dastlabki komponenti, kreativ pedagogik faoliyat tajribasi ijodiy salohiyatning asosiy komponenti, kreativ kompetensiyaning mezonlari va darajalari, pedagogning kreativ kompetentsiyasini shakllantirishning tamoyillari va omillari hususida fikrlar bayon etiladi.
9	Ta’lim-tarbiya jarayonida	Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy

	o‘quvchilarni ma’naviy kompetentsiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv	kompetentsiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv, shaxsiy sifatlar, insonni ijodkorligi, muvaffaqiyatga yetaklovchi fazilatlar haqida bilimlar beriladi.
10	Pedagogik muloqot - o‘qituvchining ijodiy faoliyati sifatida	O‘qituvchining kasbiy faoliyatida kreativ muloqot tizimi, o‘qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarishi, pedagogik muloqotni tashkil yetish yo‘nalishlari, o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda, ular tomonidan bilimlarni puxta o‘zlashtirilishiga sharoit yaratish, o‘qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog‘liq kreativ xususiyatlari, pedagogik kreativ ta’sir ko‘rsatish - kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyatida kreativ, tanqidiy ta’sir o‘tkazish hususida bilimlar beriladi.
11	Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkorligini rivojlantirishda AKT va pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkorligini rivojlantirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkorligini rivojlantirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va zarurati, effekt fondlari va tizim resurslarini qo‘llash kreativ muammolarni hal qilishni o‘rganish, axborot fondi, kreativ resurs yondashuvi, ular bilan ishlash, resurslarni tahlil qilish algoritmi o‘rgatiladi.
12	Umumta’lim maktablarida tarbiya fanini o‘qitishda kreativ yondoshuv. O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondoshuv	Tafakkur kelajakga yetaklovchi vosita ekanligi, bilimga asoslangan jamiyatda muvaffaqiyat qozonish, bilim, taraqqiyotga o‘tish borasida kompetentsiyalarni shakllantirish; XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv; O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondoshuv; O‘quv fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondoshuv; Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to‘plamini shakllantirish o‘rgatiladi.
13	Badiiy pedagogika	O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash –

	imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv	pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko‘rsatuvchi muhim holat ekanligi; Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv; Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ahamiyati o‘rgatiladi.
14	Ijodiy vazifalar tizimi	Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil yetishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi; O‘quv mashg‘ulotlari va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv hususida fikrlar bayon etiladi.
15	NFTM-TRIZ uzluksiz kreativ ta‘lim tizimining kontseptual asoslari va modeli	An‘anaviy pedagogik tizimning retrospektiv tahlili; NFTM-TRIZ tizimi; Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda ta‘lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari; Ilmiy ijod usullari; Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi; TRIZ ijodkorlik texnologiyasi sifatida; TRIZning asosiy tushunchalari; Tizimli fikrlashni rivojlantirish; Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari hususida fikrlar keltiriladi.

Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalari uchun Kreativ pedagogika fanidan 8-semestr davomida maruza mashg‘ulotlarida o‘qitiladigan 2-mavzu “Kreativ ta‘lim muhiti: mohiyati, xususiyatlari” mavzusini o‘qitishda kreativ ta‘limning tabaqalanishi va davriyligi, “Atrof-muhit”, “Kreativ muhit”, “Ta‘lim muhiti”, “Kreativ ta‘lim muhiti” tushunchalarining mohiyati, kreativ ta‘lim muhitining asosiy talablari, kreativ ta‘lim muhitini shakllantirishning pedagogik shartlari bilan birgalikda kreativ ta‘lim muhitini shakllantirishda motivatsion yondashuvning o‘rni, motivatsion yondashuv kreativ ta‘lim muhitini hosil qilishning asosiy omili ekanligi hususida fikrlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq. Chunki kreativ muhitni hosil qilishda avvalo ta‘lim oluvchilarning ta‘limga nisbatan motivatsiyasini qaror toptirish, ularda motivatsiyani yuzaga keltirish muhim, motivatsiyasiz kreativ ta‘lim muhitini yuzaga keltirib bo‘lmaydi.

Shuningdek, maruza mashg‘ulotining 5-mavzusi “Kreativ kompetensiya modelining shakllanishi va o‘qituvchining ta‘lim jarayoniga kreativ yondoshuvi” ni o‘qitishda nafaqat o‘qituvchi modelining umumiy tavsifi, o‘qituvchining kreativ kompetentsiyasini shakllantirishning modeli, kreativ tayyorgarlik-ijodiy yetuklikning tarkibiy qismi balki, motivatsion yondashuvning kreativ o‘qituvchi modelidagi o‘rni, motivatsion ijodkorlik-pedagogning asosiy quroli ekanligi, kreativ pedagog qiyofasini motivatsion yondashuvsiz shakllantirib bo‘lmasligiga ham e‘tibor qaratilishi lozim. Chunki kreativ pedagogni

shakllantirishda uning tarkibiy komponenti o‘laroq motivatsion yondashuv asosiy omil hisoblanadi.

Kreativ pedagogika fanining 8-mavzusi “Kreativ kompetentsiyaning mazmuni va tuzilishi. O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullari” ni o‘qitishda kreativ kompetensiya, kreativ eruditsiya - ijodiy salohiyatning dastlabki komponenti, kreativ pedagogik faoliyat tajribasi ijodiy salohiyatning asosiy komponenti, kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari, pedagogning kreativ kompetentsiyasini shakllantirishning tamoyillari va omillari hususida bilimlarni o‘rgatish barobarida shaxsda kreativlikni rivojlantirishda motivatsion yondashuv vositalari, kreativ kompetensiya hususida fikr bildirilganda motivatsiyaga urg‘u berilishi, kreativ kompetentsiyaning mezon va darajalari hususida fikr bildirilganda albatta motivatsion mezon hususida fikr bildirilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda motivatsion yondashuv komponentlaridan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. Ma‘lumki, kreativ kompetentsiyaning asosini motiv tashkil etadi. Mavzu yuzasidan berilayotgan nazariy ma‘lumotlarni tahliliy baholash, qabul qilish, xulosalar chiqarishda hamda o‘z kasbiy kompetentsiyasini shakllantirib borishda motivatsion yondashuv ayni muddao bo‘ladi.

**Xulosa.** Shuningdek mazkur fanning maruza mashg‘ulotlarida o‘qitiladigan mavzular mazmuniga motivatsion yondashuv va uning komponentlarini singdirib borish, ma‘ruza mashg‘ulotlaridan ko‘zlangan maqsadga hamda ta‘lim oluvchilarning maruza mashg‘ulotlariga nisbatan ijobiy kayfiyatini yuzaga chiqarishga hizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni,

2. ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.

3. Rahmonova Z.K. Kreativ g‘oya, kreativ usul va kreativ yondashuv. Ustozlar uchun ilmiy-metodik jurnali / 62-son 2-to‘plam Oktyabr 2024. – B.32. <file:///C:/Users/Innovations/Downloads/31-36.pdf>